

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

*Allaberganova Sayyora Xadjiyevna*

*Xorazm viloyati Urganch tumanidagi*

*6-son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Maktab ostonasiga ilk qadam qo'yib boshlang'ich sinfga qabul qilingan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti-o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvoffiq foydalanish bilan talim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarni biz mazmuniga va amalga oshirish shakliga kura ikki xil tasnif qilamiz:

1. Mazmuniga ko'ra.

2. Amalga oshirish shakliga ko'ra.

1. Mazmuniga ko'ra didaktik o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi: tinch o'yinlar; harakatli o'yinlar; aralash turdagi o'yinlar.

2. Shakliga ko'ra didaktik o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi: musobaqa o'yinlari; sahna o'yinlari.

Quyida 1-sinf «Ona tili» darslarida qo'llash mumkin bo'lgan didaktik o'yinlar mazmuni bilan tanishtiramiz. Shu bilan birga, har bir o'yinni o'tkazish tartibini uch variantda misol tarzda keltiramiz. Didaktik o'yinlar mazmuniga ko'ra, qilingan tasnifga asoslanib joylashtiriladi. Shuni eslatib o'tish joizki, ona tili va o'qish darslarida qo'llash uchun tavsiya qilinayotgan didaktik o'yinlardan foydalanishda qat'iy chegara mavjud bo'lmay, boshqa yuqori sinflarga ham moslashtirib foydalanish mumkin. Tinch o'yinlarga quyidagilarni kiritish mumkin: «O'zim tekshiraman», «Hikoya», «U kim, bu nima?», «Topag'on», «Noto'g'ri jumla», «Bo'lishi mumkin emas», «Harflarni top

«, «O'qib ko'r-chi », «Davom ettir », «Safar », «Sirli so'z », «Zanjir », «O'yin – topishmoq », «Bu meniki », «Tez javob », «Rebus », «Krossvord». Pedagogik amaliyot jarayonida qo'llanilgan ushbu o'yinlarning ayrimlaridan misollar keltiramiz.

“**Hikoya**” o'yinida, o'qituvchi doskaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Hikoya tuzish jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri tashkil qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. O'quvchilarning vaqt-vaqti bilan rag'batlantirish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu o'yindan ona tili darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda foydalanish mumkin. 1-variant: Nafisa, soat, yomg'ir, kitob. 2-variant: Olma, kasal, o'rtoq, Abduvali. 3-variant: Mushuk, bobo, poliz, non, sichqon.

“**U kim, bu nima?** “ o'yinida, stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu predmetlardan birortasini ta'riflaydi. O'quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar. Bu o'yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, qo'llarga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin. Bu o'yin o'quvchilarda, ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu o'yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin. Bugungi kunda boshlang'ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi — ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. -T.: TDPU. 2000